



ONA TILI O'QITISH TEXNIKASIDA NUTQIY KOMPETENSIYANING O'RNI VA ROLI

¹**Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute
Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

²**Atiyazov Sapparbay Jumamuratovich**

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasida assistenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8037139>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2023

Accepted: 13th June 2023

Online: 14th June 2023

KEY WORDS

Nutqning aniqliligi, nutqning mantiqiyligi, nutning ifodaviyligi, monologik nutq va so'zlovchi munosabati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili o'qitish texnologiyalari doirasida keng qo'llaniluvchi nutqiy texnika va texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr va muhokamalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada o'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi ijtimoiy faoliyatida nutqiy kompetensiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati yuzasidan qarashlar ham mavjud. Nutqni to'g'ri va ravon shakllantirishda aniqlik, mantiqlilik va ifodaviylik prinsplariga qat'iy amal qilishlikning o'ziga xosligi amaliy tavsiyalar bilan ifodlangan ekanligi bilan xarakterlanadi. Monologik nutqning to'g'ri tuzilishida qo'llaniluvchi vosita va predmetlarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishi bilan izohlaniladi.

Maktab o'quvchilarining nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish o'qituvchining pedagogik faoliyatida katta o'rin tutishi bilan xarakterlanadi. Aksariyat hollarda, o'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatda og'zaki nutqdan foydalangan holatda o'quvchilarning har ikkala shakli: og'zaki va yozma nutqda ham amalga oshiriluvchi nutq shakllaridan unumli foydalanishi bilan ahamiyatlidir. Shuni unutmash kerakki, ona tili darslari faqatgina o'quvchi yoshlarning nutqiy salohiyatini rivojlantiruvchi manbai vosita bo'libgina qolmay, ijtimoiy jamoiyotda qo'llaniladigan so'zlashuv shakllari, tilning gramatik jihatdan qurilishi, tovush va qo'shimchalar tasnifi bilan ham izohlaniladi. Maktab pedagoglariga qo'yiladigan talablardan biri mavjud yoki tuzilayotgan nutq tarkibida mazmuv va ohangning normal darajada qo'llanilishi lozim ekanligi bilan izohlaniladi. "Monologik nutq-so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini inobatga olmaydigan nutq shaklidir. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblaniladi. Ba'zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar,



kundaliklar) shaklida ifodalanilishi mumkin".[1] Haqiqatdan ham, nutq shakllarining qanday maqsad yuzasidan tuzilayotgan ekanligi bilan izohlanishi hamda ma'lum bir mavzu doirasida qo'llash uchun tashkil etilgan nutq asosan quyidagi hollarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha:

- ma'ruza shaklidagi nutlar;
- diolog shaklidagi nutqlar;
- dramatik nutqlar;
- monologik nutqlar;
- ilmiy nutqlar;
- publitsistik nutqlar;
- badiiy ifodalangan nutq;

-tarjima nutqlar va boshqalar. Shuni unutmash kerakki, nutq shaklining o'zgarishiga erishish uchun munozaralarda faol ishtirok etish, sun'iy diologlarni shakllantirish lozim. Ushbu holatda, sun'iy vaziyat va muhitning shakllantirilishidan maqsad, tinflavchi va so'zlovchi uchun qiyin bo'lgan mavzular nuqtai nazaridan kelib chiqib sun'iy muhit doirasida qo'llaniluvchi nutq shakllarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'zlovchi nutqida ma'lum bir xatoliklar ham mavjud bo'lishi mumkin bo'lib, ularning ildini olish lozi, "Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir. Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi. Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilar kuzatish, material to'plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko'z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to'liq qamrab ololmaslik, materialni o'z o'rniga joylashtira ololmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko'nikmasi murakkab ko'nikma bo'lib, u o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi".[2] Ushbu holatlarning oldini olish uchun, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyaviy qobiliyatini yetarlicha ravishda rivojlantirish lozim deyish mumkin. Morfologik-uslubiy xatoliklar nutqning ko'rkamliligiga putur yetkazib sifat darajasini tushurishga olib keladi. Notiqlik san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki notiq o'zaro nutq xususiyatidan kelib chiqib, so'zlarning muqobillarini tanlashi lozim bo'ladi. Bunda asosan, kishining so'zlash qobiliyatida mohirlikning naoyon bo'lishi bilan izohlaniladi. Notiqlik darslarig a'rgatishda pedagoglar quyidagi jihatlarga qat'iy e'tibor qaratishlari zarur. Ular quyidagicha:

1. Nutqning mantiqiy ketma-ketlikka tayanilishi;
2. Uslubiy me'yorlardan unumli foydalanilishi;
3. Nutqning aniqqlikka tayanilishi;
4. So'zlarning muqobil variantlarini tanlab olish;
5. Dominant so'zlardan foydalanish;
6. Kirish so'zlardan foydalanish;
7. Gapning soda tarkibdaa truzilishiga e'tibor qaratish;



8. Gapda so'z o'zgarishlarining to'g'ri talaffuz qilinishi;
9. So'zlarning fonetik jihatdan ma'lum o'zgarishlarga uchrashi;
10. So'zlash davomiyligida dialektal birliklardan foydalanish.

“Gapning grammatik qurilishi til qonun qoidasiga asoslanmog'i shart. Nutq davomida keltirilishi lozim bo'lgan she'riy parchalar nutqdagi fikrlarni qo'llab-quvatlashga va mustahkamlashga xizmat qildirilishi tinglovchilar diqqatini oshiradi. Ommabop nutq og'zaki matnga qaralmasdan (matn bo'lsada) o'qilishi, iloji bo'lsa mikrofonisiz so'zlanishi tinglovchi omma e'tiborini yanada o'ziga jalb etadi. Bunday nutqda ilmiy jumlar (agar ishlatilsa, iloji boricha ishlatilmagan ma'qul), chet tillaridan olingan (oke, koroche, shes sekund, stavka, shapka, shef kabi) so'zlar me'yorini saqlash ham notiqqa mas'uliyat yuklaydi. Demak, notiq har bir so'zning sodda shaklini tanlamog'i, sheva va jargon so'zlardan foydalanishning afzal tomonlari va meyyorini bilishi kerak. Ommabop nutqqa xos yana bir muhim jihat nutq jarayonida hayotiy misollardan foydalanishdir, bunda ma'ruza o'qilayotgan joyning, hududning o'zidan kelib chiqadigan hayotiy misollardan foydalansa ayni muddao bo'ladi”.[3]

References:

1. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus “Nur-Turan-Print” 2023.
2. Abdiyazova Muhayyo Zaripovna, Mametova Bahorgul Yusupovna.; Nutqiy xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari. Scientific progress 2021
3. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. Toshkent. Yangi nashr - 2008